

O'zbekiston Prezidenti Sankt-Peterburg gubernatorini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-noyabr kuni mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Sankt-Peterburg shahri gubernatori Georgiy Poltavchenkoni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, joriy yilda bo'lib o'tgan oliy darajadagi samarali uchrashuvlar va ularning yakunlari bo'yicha erishilgan kelishuvlar, jumladan, aprel oyida imzolangan ikki mamlakat mintaqalari o'rtaida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim O'zbekiston Respublikasi hududlari va Rossiya Federatsiyasi subyektlarining amaliy hamkorligini, avvalo, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni faollashtirishga xizmat qilganini mammuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Sankt-Peterburg shahri o'rtaсидаги an'anaviy yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda o'zaro tovar ayrboshlash hajmi 200 million dollarni tashkil qilmoqda. Sankt-Peterburg shahrida 1 millionga yaqin yurtdoshimiz mehnat faoliyatini amalga oshirmoqda. Shaharning yetakchi oliy o'quv yurtlarida 3 mingdan ziyod yoshlarimiz ta'lim olmoqda.

O'zaro savdo hajmini oshirish va yetakchi korxonalar o'rtaida kooperatsiyani kengaytirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish zarurligi qayd etildi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim va turizm sohalarida qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Sankt-Peterburg shahri gubernatori Georgiy Poltavchenko Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimi qabul uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. O'zbekiston bilan ustuvor yo'nalishlarda keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

O'zA